

**QARDOSH XALQLAR SHOIRI ALEKSANDR AKRADVICH FAYNBERG
SHE'RLARIDA VATAN TUYG'USI**

Najmiddinova Shahinabonu Nutfullo qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining 3-bosqich talabasi

***Annotatsiya:** Bu maqolada o'zbek va rus yozuvchisi, betakror va unitilmas asarlar muallifi Aleksandr Faynberg she'rlaridagi ona Vatan, xalqiga bo'lgan mehr-muhabbati, jumladan, Vatanni olqashi va yozuvchining she'rlarini bugungi kelajak avlodga ta'siri va ahamiyati haqida so'z yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:** Ona Vatan tuyg'usi, Aleksandr Faynberg, shoir, unutilmas she'rlar, vatanparvarlik, milliylik, yurt sevgisi, sharq mumtoz she'riyati an'analari, o'chmas xotira.*

KIRISH

O'zbek adabiyoti shunday yorqin dur-u javohirlardan iboratki, ularning har biri o'z bahosiga va o'z jozibasiga ega, qolaversa, ular nozik hilqat egalariga mansubdir, har birlari biz uchun ulkan mahorat maktabi vazifasini o'taydi. Ana shunday o'zining durdona va bebaho javohirlari ya'ni asarlari bilan xalqimiz hamda kelajak avlod qalbidan chuqur joy egallagan va o'zining muhim o'rniga ega bo'lga, tafakkurda tengsiz shoirlardan, qalam bilan dunyo titratgan yozuvchilarimiz safida, jahon adabiyotidan bahramand bo'lishimizda beminnat yordam ko'rsatgan tarjimonlarimizdan, ulkan iste'dod sohiblaridan biri bu yozuvchi, shoir hamda tarjimon Aleksandr Arkadevich Faynbergdir. Bir so'z bilan e'tirof etsak bu “Qalbi o'zbek rus shoiridir”.

Buyuk shoir ijodiga razm solgan kishi uning qalbi bilan bosib o'tilgan ijodiyotning sehrliligi yo'llarini ko'rishi mumkin. Uning she'rlaridagi jozibador qatorlarni o'qir ekanmiz, qalbimizni jumbushga keltiruvchi Vatanga bo'lgan sevgi, muhabbat hislariga duch kelamiz. Shoirning to'plamlari: “Velotreklar“ (1965);

“Etyud” (1967); “Soniya” (1969); “She’rlar” (1977); “Olis ko’priklar“ (1978); “Osmon muhri“(1982); “Ijobat”(1982);“Qisqa to’lqin“(1983); “Yoymato’r“ (1983); “Erkin sonetlar“ (1990); “Varaq” (2008) .

Faynberg she’rlarida uchqunli hajviya mavjud. “Ruboiy tori” dostonida u kulgi orqali o’zbek choyxonasini o’zgaras oshini shunday ta’svirlaganki, uni yuzda tabassumsiz o’qib bo’lmaydi, uni o’quvchi esa beixtiyor palovni ta’tib ko’rishni xohlaydi. U bu dostonida milliy taomimiz bo’lmish oshni va choyxonani yaqqol yoritib beradi. Bu bilan Ona Vatanga, yurtga bo’lgan muhabbatini yana bir bor isbotlaydi. She’riy ijodida o’tmish bilan hozirgi kun, G’arb bilan Sharq, milliylik bilan baynalmilallik o’zaro tutashib, o’ziga xos badiiy olamni vujudga keltiradi. Faynbergning lirik qahramoni tarixiy-ijtimoiy silsilalar asrida o’zining insoniy mohiyatini to’la saqlab qolgan ya’ni milliylikni, ona Vatanni unutmagan. Xalqqa mehr-shafqat va madad qo’lini uzatishga tayyor, ayni paytda yer kurrasida sodir bo’layotgan noxush voqea va hodisalardan iztirob chekuvchi yana o’z Vatanida uzoqda, uni har qadamda yurt sog’inchi qiynaydi.

Faynbergning “Ona shahrim – Toshkent“ nomli nasriy asarida shunday yozadi : “Men Rossiyaning poytaxtiga mehmon bo’lib kelganman . Mana u bamisoli kaftimni ustida turgandek butun borlig’i bilan ko’rinmoqda.O’n sakkizinchi qavat derazasidan ushbu shaharning ufqqa cho’zilib ketgan tarixiga boqaman va ich-ichimdan o’kinaman. O’kinaman, o’kinaman! Bu shahar revolutsiya yillarida yolg’izgina onamni Magadan uloqtirib yuborgan edi. Ko’p yillar o’tgandan so’ng faqatgina Toshkent uni o’z bag’riga oldi va ellik darajali sovuqda qolgan vujudini mehr bilan isitdi” .

Qalbi quyoshdek issiq, bag’ri keng, oq ko’ngil o’zbek xalqining mehr-u saxovatidan bahramand bo’lganini taqdirning cheksiz inoyati va rahm-u shafqati deb biladi shoir. “Agar ota-onam Toshkentga kelmaganida urush payti nemis-fashistlar qirg’inidan omon qolmas edik, balki men hali dunyoga kelmasdanoq juvarmarg bo’lar edim”, degan iqrorini takror-takror eshitganmiz. “Onam Moskvada, otam Piterning shundoqqina biqinidagi Gatchima shahrida tug’ilgan. Biroq ular Toshkentga Sibirdan ko’chib kelishgan . Hoynahoy, men aynan shu yerda

tug'ilishim uchun ko'chib kelishgan bo'lsa kerak ...” Uning otasi Arkadiy Lvovich, onasi Anastasiya Aleksandrovna edi, lekin shoir Toshkentda tug'ildi va Toshkent ko'chalarida bolaligi o'tdi. Shuning uchun ham shoirning barcha she'rlarida milliylik, sharq adabiyoti nafasi, yurt sevgisi barq urib turadi.

Faynbergning she'riy ijodida rus va Yevropa shoirlarining eng yaxshi badiiy tajribalari sintezlashgan. Sharq mumtoz she'riyati an'analari ham uning ijodiy uslublaridan biridir. Shoirning ijodi sermahsul va keng ko'lamli. Uning she'rlarida rang-baranglik, falsafiylik, teranlik, tuyg'ular tiniqligi yarqirab turadi. Shoir so'zni chuqur his etadi, bu hisga o'quvchini ham hamroh qiladi. U O'zbekistonda yashadi va ijod qildi. Bu yurtning havosi, osmoni, tuprog'i, eli, bir so'z bilan aytganda, butun borlig'i shoirga she'r qadar, qalb qadar aziz. Bu shoir satrlarining asarlarining haroratida bor bo'yi bilan ko'rinadi, bo'ylari nafasimizga uriladi.

Shoir O'zbekistonni ona Vatanim deya jondon ortiq sevdi. Ona deya ardoqlagan Vataniga mehr-u muhabbat, shukronalik tuyg'ularini izhor etishdan tolmaydi. She'rlari nasriy asarlari O'zbekistonning Jannat makon manzaralarini, xalqimizning milliy urf-odatlarini, yuksak madaniyati va manaviyatini tasvirladi. Tasvirlaganda ham samimiy, yurakni jiz etadigan muhabbat harorati ila jonli va hayotiy ifodalanadi. Shoirning ijodi sermahsul va keng ko'lamli.

O'zbekiston xalq shoiri, Kinomatografiya uyushmasi a'zosi Aleksandr Faynberg Rossiya prezidenti tomonidan O'zbekiston O'rtasidagi madaniy aloqalarga munosib hissa qo'shganligi uchun Pushkin medali bilan taqdirlandi. Prezidentimizning tashabbusi bilan yangidan bunyod etilgan adiblar xiyobonida mumtoz va zamonaviy adiblarning ulug' namayondalari qatorids Aleksandr Faynberg haykali ham o'rnatildi.

XULOSA

Buyuk shoir o'zbek adabiyoti va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan, o'zining betakror asarlarida el-u yurtimzni yuksak badiiy mahorat bilan tarannum etgan noyob iste'dod egalaridan biri edi. Shoir o'zidan o'chmas va tunganmas asarlarini meros qilib qoldirdi. Uning she'riyatidagi jozibasi juda turlicha fe'l-atvor, qarashlar va turli yoshdagi odamlarning qalbini zabt etdi. Aleksand Faynberg ijodi

istiqlol ruhi maqsadlari bilan yog'ringarligi, millat manfaati uchun hizmat qilganligini anglatadi. Shunday o'g'ir davrda O'zbekistonning, o'zbek xalqining matonati va mehribonligini takror-takror madh etadi. U paytda hamma o'z jonini qutqarishni o'ylar, lekin odamgarchiligi baland o'zbeklar boshiga musibat tushgan millatlarni o'z bag'riga olib, boshini silaganini she'larida cheksiz minnadorlik tuug'usini qaynoq mehr bilan e'tirof etdi. O'zining yeb turgan nonini boshqalar bilan baham ko'rgan, madadga muhtojlarning jonini saqlab qolgan millatga boshi yerga tekkudek tazim qilib, rahmat aytdi. Shoir bor vujudi bilan his qilgan tuyg'ularini qog'ozga tushirdi va o'z tuyg'ularini kitobxonlar bilan baham ko'rdi. Uning she'rlari nafaqat o'sha davrdagi, balki hozirgi yoshlarni ham yuragini Vatan muhabbati bilan to'ldirishi, ularni yurtga, xalqqa sadoqatli bo'lishga undashi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham uning she'rlari qancha asrlar o'tsa ham o'z qadriyatini yo'qotmaydi va milliylikni saqlab qolgan holda, kitobxonlar kutubxonasidagi shohasarlari qatorida turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg
2. <https://ilmlar.uz>
3. <https://arboblar.uz/uz/people/fajnberg-aleksandr-arkadevich>
4. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/rus-she-riyati/aleksandr-faynberg-1939-2009>
5. https://arm.samdchti.uz/library/book_view/692
6. <https://yuz.uz/uz/news/aleksandr-faynbergning-yorqin-xotirasiga>
7. <https://n.ziyouz.com>
8. Aleksandr Arkadevich Faynberg hayotini va ijodini o'rganish dastur va uslubiy qo'llanma.